


**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**70710402 – Ekologiya (qishloq xo'jaligida) magistratura mutaxassisligining  
malaka talablari**

Toshkent - 2023



**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat agrar universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikator", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka qoidalari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	.	bet
1.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligining malaka talabini qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetentsiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetentsiyalar.....	7
2.3	Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistratura yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3	70710402 – <i>Ekologiya (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistratura yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

## **1. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi yo‘nalishining umumiy tavsifi**

70710402 – *Ekologiya (qishloq xo‘jaligida)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

**1.1.1. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 70710402 – *Ekologiya (qishloq xo‘jaligida)* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlar uchun talablar majmuini ifodalaydi.

### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

**1.2.1. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

70710402 – *Ekologiya (qishloq xo‘jaligida)* – “Muxandislik ishi” ta‘lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u barcha ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlar, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, tabiatni muhofaza qilish va o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitalari, ishlab chiqarish tarmoqlari sub‘ektivlarida ekologiya va atrof-muhit muhofaza qilish faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish tarmoqlari va sohani rivojlantirishida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish choralarni ta‘minlash, yer, suv, iqlim, mineral va biologik resurslarining inson tomonidan o‘zlashtirilishi, ya‘ni hayvonot olami va o‘simliklar dunyosidan foydalanishda tabiatning ifloslanishi, tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslar, tabiatni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlik masalalari hal qilishda kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional, ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqoti va jaryonlari;

- davlat va shaxs hamda xo‘jalik faoliyati sub‘ektlarining ekologik xavfsizligini ta‘minlash,

- ekologiya sohasida huquq-targ'ibot va qonuniylikni ta'minlash jarayonlari;  
- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizim tashkilotlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, firma, kompaniyalar, ishlab chiqarish birlashmalarida ekologik xavfsizlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- ekologiya sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashshirishni amalga oshirish jarayonlari;

- ijtimoiy-iqtisodiy ekologik jarayonlar va hodisalarni, hozirgi zamonda ekologik xavfsizlik ko'rsatkichlarining tahlil jarayonlari;

- ekologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni umum qabul qilingan uslublarda olib borish;

**1.2.3. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyati;
- moliyaviy-iqtisodiy faoliyati;
- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;
- huquq targ'ibot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;

**1.2.4. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari.**

70710402 – Ekologiya (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

-ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarni tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

-ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

-ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktivlik, texnologik va ekspulatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holatda qidirish va topish;

-ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

-mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarni ishlab chiqish;

-oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

-o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatini tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

-elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

-pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

**Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlili va nazorat faoliyatida:**

-davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarini xavfsiz boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy xujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

-ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual hamda nazariy modellarni ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

-O'zbekistondagi hamda xorijdagi global, regional, lokal darajada sodir bo'ladigan ekologik muammolar, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

-tabiiy va biologik resurslardan oqilona foydalanish borasida qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarni ko'rish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayotiy faoliyat xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringini yuritish, kasbiy muammolar yechimini topish, ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;

- tabiat va uning resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va samaradorligini baholash, ekologik qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarni ko'rish;

#### **Huquq-targ'ibot faoliyatida:**

- qonuniylik va huquq-targ'ibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyatida sub'ektlarning ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;

- ekologik tahdid soluvchi omillarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish;

- ekologiya sohasidagi jinoyatlar va qonunbuzarliklarni profilaktika qilish, ogohlantirish, aniqlash va ochish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'limlari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- atrof-muhitni muhofaza qilishda chiqindilarning me'yoriy talab normalariga va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilish;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ekologiya sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorligini oshirish;

- qabul qilinadigan qarorlarni ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlar variantlarini ishlab chiqishda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish.

- shartnoma tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tadbirlarini aniqlash.

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining xom-ashyo ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda tabiiy resurslaridan samarali foydalanish ekologik xavfsizligini rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqarish ekologik xavfsizligini ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarini ishlab chiqish va tadbiq etish;

## **2. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogik metodologiyasini bilish va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosida kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosida tashkil qila olishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida foydalana olishi;

- internet tarmog'idan axborotni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyatda, sharoitda axborot texnologiyalarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

## **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarni qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferentsiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijiy e'lon qilingan loyihalarida ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyihalarni tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda ekologik tamoillarni qo'llay bilishi;

- suv zahiralardan foydalanishning tejamli usullarini ishlab chiqish, sug'orishda va atrof-muhitni muhofaza qilishda takomillashgan texnologiyalarni qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- mintaqaning tabiiy zahiralarni kompleks boshqarish tizimini takomillashtirish, atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tabiiy o'simlik jamoalarining va yovvoyi o'simliklar o'sadigan muhitning bir butunligini saqlab qolish, o'simlik dunyosidan oqilona foydalanish va uni takror yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini tadbiq etish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;

- ekologik tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

- me'yoriy – huquqiy hujjatlarni ekologik ekspertizadan o'tkazishini bilish.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – magistratura mutaxassisligi ixtisoslashuvidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

ilmiy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

### 2.3.1 Kvalifikatsiya: Ekolog (tadqiqotchi-pedagog).

#### 2.3.2. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistratura yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta‘lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1200	46
Tanlov fanlar	600	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

#### 2.3.3. 70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistratura yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanining malakaviy kodi	O‘quv fanlar, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1380</b>	<b>46</b>	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	2
1.02	MFO‘MM1404	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	1
1.03	EKITUM1404	Ekologiyada ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	BIOEKOM1406	Biosfera ekologiyasi	180	6	2
1.05	EKOSEKOM1406	Ekosistemalar ekologiyasi	180	6	1
1.06	EKNZM2404	Ekologik nazorat	120	4	3
1.07	TFUMQM2406	Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish	180	6	3
1.08	EKOTVTM2406	Ekologik ta‘lim va tarbiya	180	6	3
1.09	MHOHM1406	Muhofazaga olingan hududlar	180	6	1
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	
2.01		Tanlov fanlar (3 ta fan)	420	14	2,3
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	



---


**Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, biosfera, ekosistema, biogeotsenoz, o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, biologik xilma-xillik, populyatsiya, tur, produtsentlar, konsumentlar, redutsentlar, litosfera, gidrosfera, atmosfera, landshaft, gorizonta l struktura, vertikal struktura, cho'l, adir, tog', yaylov, barqaror rivojlanish, tabiatdan foydalanish, tabiat muhofazasi, noyob turlar, kamyob turlar, endemizm, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, suv muhiti, havo muhiti, tuproq muhiti, ekologik omillar, biotik omillar, abiotik omillar, antropogen omillar, maksimum ta'sirlar, minimum ta'sirlar, suvning ifloslanishi, tuproqning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, sho'rlanish, qurg'oqchilik, iqlim o'zgarishlari, globallashuv, mintaqalar muammolari, ichimlik suv, ozon qatlami, ekologik valentlik, ekologik xarita, Orol dengizi, ekologik monitoring, demografiya, ekologik ekspertiza faoliyati, magistratura, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlar bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kadrlarga talab, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil « 01 » 08

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va  
iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini  
boshqarish bo'limi

Boshlig'i  D. Ashirova

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I. Madjidov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va  
iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Atrof-  
muhit va tabiatni muhofaza qilish ilmiy  
tadqiqot instituti

Direktor  B. Pulatov

2023 yil « 12 » 07

M.O'.



**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiqaruvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar is‘temolchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ 10 ” 07 . 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Inson resurslarini boshqarish bo‘limi boshlig‘i D.Ashirova, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti rektori I.Madjidov, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish ITI direktori B.Pulatov, Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori S.Islamov birgalikda ToshDAU da ishlab chiqilgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70710402 – Ekologiya (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi**  
**Inson resurslarini boshqarish bo‘limi boshlig‘i**

**D. Ashirova**

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti rektori, professor**

**I. Madjidov**

**Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish Ilmiy tadqiqot instituti direktori**

**B. Pulatov**

**Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor**

**S. Islamov**